

“SHUM BOLA” ASARINING YOSH BOLALAR UCHUN AHAMIYATI

Eshboyev Sharafiddin Alisher o`g`li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 3-bosqich talabasi

E-mail: eshboyevsharafiddin01@gmail.com

G`afur G`ulomning “Shum bola” asarini o`qimagan o`quvchi bo`lmasa kerak, deyarli hamma G`afur G`ulomning “Shum bola” asarini o`qigan, hech bo`lmasaga uning filmini ko`rgan bo`lsa kerak.

Asarda o`sha paytdagi tuzum va hayot tarzi batafsil yoritib berilgan. “Shum bola” asari aynan ikkinchi jahon urushi paytlarida yozilgan va asarda jahon urushi tufayli hayot tarsi ancha qiyinligi tasvirlangan. Men yoqtirgan asarlar ichida “Shum bola” asari birinchi o`rinlarda turadi, sababi ushbu asar judayam tabiiy chiqqan va hech qanday bo`yoq dor so`zlar bilan sun`iy yasalmagan. Shum bola ya`ni Qoravoy judayam shaddod va o`yin qaroq bola, uning ko`ngli toza va u o`rtoqlarini xursand qilish uchun hattoki uyidan tuxum o`g`irlab chiqmoqchi bo`ladi. Afsuski, o`sha payda onasi uni koyib qoladi va boshiga bitta musht tushirgan payti, tuxumlar yorilib ketadi va xuddi miyasi oqayotgandek bo`lib, pastga tushadi. Buni ko`rgan onasi esa “Men o`g`limning miyasini qatig`ini chiqarib yubordim” deb dod-varyod soladi. Bu orqali o`zbek ayoli qanchalar soddaligi va oqko`ngillilagini ko`rishimiz mumkin. Ya`ni u oldin o`z farzandini jahli chiqqan payt koyib beradi, lekin u o`z o`g`lini yaxshi ko`radi va hattoki, shum bolaga ketib qolgandan keyin, uni sog`inib yig`lab chiqadi. Asarning aynan o`sha joyini kinoda judayam yaxshilab suratga olishgan va ushbu joy “Shum bola” kinosining kulminatsion nuqtasiga aylangan, boshqacha aytadigan bo`lsak, bu xuddi shirinlikning ustidagi gilosga o`xshaydi. Menimcha, ushbu joyda tuxumning yorilgani balki yaxshilikka bo`lgandir, sababi tuxum yorilmaganda shum bola shuncha sarguzashtlarni boshidan kechirmagan bo`lar edi. Tuxum yorilganidan keyin u uyiga qaytib borishni va o`z onasi ko`ziga qarashni o`ziga isnod deb biladi va uyga qaytmaslikka qaror qiladi.

Biz ham shum bolaning yoshida bo`lgan paytimizda judayam o`yin qaroq edik va iloji boricha boshqalarning e`tiboriga tushishni xohlar edik, qandaydir o`zgacha narsani bajarish orqali, bu narsa xoh foydali, xoh foydasiz bo`lsin, bizga o`sha paytda farqi yo`q edi. Shaxsan men ham shum bolaga o`xshab yosh paytlarimdan

o`zimizni daladan qovun va ba`zan tarvuz o`g`rilab, o`rtoqlarim bilan birga yerdim. Sababi ularga yaxshi ko`rinishni xohlar edim.

Asarning menga eng yoqqan qismi bu o`z o`rtog`i Omon va soxta mulla bilan o`lik yuvgan joyi. Tasavvur qilib ko`ring-a!. 14 yoshli bola o`lgan odamning jasadini yuvsay-ya. Tasavvur qilish juda qiyin, sababi 14 yoshli bola bu endi 6-7-sinf bo`lgan hali yosh bola bo`ladi. Menga shu joyida shum bolaning shunday jasurligi yoqadi, sababi u hech narsadan qo`rqmaydi va qaytmaydi.

Asarda shum bolani ko`pchilik betayin, beg`am va mas`uliyatsiz bola deb o`ylashi mumkin, lekin u hali yosh va u ko`nglida kiri yo`q oqko`ngil bola. Otabobolarimizdan qolgan bir gap bor: “Bola bo`lsang, sho`x bo`l” degan. Ya`ni yosh bolalarning asosiy qiladigan ishi bu o`zlarining kayfiyatini ko`tarib, biror narsa bilan shug`ullanishdir.

Asardagi eng kulgili va o`quvchilarning qiziqishini uyg`otadigan joyi bu Qoravoyning boy bilan suhbatidir. Ya`ni hammamiz bilamizki, ushbu boy barcha ishchilari bilan “innankeyinchi” deb gaplashaverib, hammani xunob qilib yuborgan. Lekin shum bolaga qoyil qolish kerak, sababi u boy bilan suhbatda boyning “innankeyinchi” deb qiyonchi savollariga dosh beradi va hattoki, boyni ushbu savolni berishga jur`at qila olmaydigan qilib qo`yadi. Shum bola shunchalik epchilligidan barcha gaplarni bir-biriga ulab ketaveradi. Shundan keyin boy uni haydab yuboradi, lekin shum bola o`z haqqini talab qiladi va unga chirigan olmalar maosh sifatida beriladi. Shum bola esa o`sha olmalarni olib, bozorga boradi va ularni sotadi. Ushbu jumlalar har doim o`z haqimizni talab qilishimizni bizga o`rgatadi.

“Shum bola” asarining bunga o`xshagan qiziqarli joylari judayam ko`p, uning har birini aytib o`tish imkonsizdir. Misol uchun, u bitta odamdan qochib, tandir ichiga tushib oladi va u yerda yarim tungacha o`tirib, bexosdan “uchrashuv” ga guvoh bo`ladi va u yerda ham epchilligi orqali, o`z qornini to`ydiradi va jim yurishi uchun mo`maygina pul ham oladi. To`g`ri, u yerda asalida ayol o`z eriga xiyonat qilayotgan bo`ladi, lekin buni yosh bola qayerdan tushunadi? U shunchaki o`z qornini to`ydirishni xohlab, hech kimga aytmaslikka va`da beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, shum bola obrazi judayam yaxshi yaratilgan va ushbu obrazni G`afur G`ulom o`zining yoshligidan ham olgan. Ushbu asar bolalarni har doim olga harakat qilishga, har qanday vaziyatda ham yechim borligiga va faqat harakat qilish kerakligiga o`rgatadi. Shuning uchun ham ushbu ko`plab tillarga tarjima qilingan. “Bu kitobni o`qishni tavsiya beraman” deb aytishning ham hojati yo`q, sababi boshida aytib o`tganimizdek, bu asarni hamma maktabda o`qib yurgan paytlarida taxminan 6-7-sinflarida o`qib chiqqan bo`lsa kerak.